**Jizzax viloyatida asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar**
**2024 yil yanvar-iyun**

| | *Mlrd. so‘m* | *2023 yil yanvar-iyuniga nisbatan foiz hisobida* |
|---|---|---|
| Yalpi hududiy mahsulot | | |
| Sanoat mahsuloti | | |
| Istemol tovarlari | | |
| Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat) lari | | |
| Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar | 10137,9 | 134,9 |
| Qurilish ishlari | 2247,8 | 110,8 |
| Yuk aylanmasi (mln. tn–km) | | |
| Yo‘lovchi aylanmasi (mln. yo‘lovchi.–km) | | |
| Chakana savdo tovar aylanmasi | | |
| Xizmatlar, jami | | |
| Tashqi savdo aylanmasi, (mln. AQSH doll.)[1]) | | |
| Eksport | | |
| Import | | |
| Saldo (+,–) | | |

* Ishlab chiqarish

```
```

# IV. INVESTITSIYALAR VA QURILISH



2024-yilning yanvar-iyun oylarida Jizzax viloyatida iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 10 137,9 mlrd. so‘m, (dollar ekvivalentida 806,8 mln. AQSH doll.) asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 34,9 foizga o‘sdi.

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.




**2024 yil 1-iyul holatiga ko‘ra qurilish ishlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni,** ***birlikda***

**Yillar kesimida soni**




**Bino va inshootlar qurilishi** **637**

**Fuqarolik obyektlari qurilishi** **296**

**Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari** **361**

**Hududlar kesimida**



Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 83,4 foizni tashkil qildi.

Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo‘nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo‘nalishi 49,2 foiz ulushni;

fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 22,9 foiz ulushni;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 27,9 foiz ulushni tashkil etdi.

**Moliyalashtirish manbalari va mulkchilik shakllari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi**

*(2024- yil yanvar-iyun)*

| | *Jami* | *shu jumladan: mulkchilik shakllari bo‘yicha:* | |
|---|---|---|---|
| | | *davlat* | *nodavlat* |
| Jami investitsiyalar, mlrd. so‘m | **10 137,9** | **719,1** | **9 418,8** |
| *shu jumladan: moliyalashtirish manbalari bo‘yicha:* | | | |
| davlat byudjeti mablag‘lari | 497,4 | 444,8 | 52,6 |
| Suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi | 84,8 | 84,8 | - |
| korxonalar va aholi mablag‘lari | 1 383,6 | 172,3 | 1 211,3 |
| chet el investitsiyalari va kreditlari | 7 990,4 | 17,2 | 7 973,2 |
| bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari | 181,3 | - | 181,3 |
| Tiklanish va taraqqiyot fondi | 0,4 | - | 0,4 |

Davlat byudjetidan ajratilgan investitsiyalar ijtimoiy sohani va hayotiy ta’minot tizimini qo‘llab quvvatlashga, Jizzax viloyati infrastrukturasini rivojlantirishga qaratilgan manzilli investitsiya dasturlarini amalga oshirish uchun yo‘naltirilgan.

## *Qurilish ishlari (2024- yil yanvar-iyun)*

| | *Qurilish ishlari, mlrd. so'm* | *Shu jumladan:* | | |
|---|---|---|---|---|
| | | *Yirik qurilish tashkilot-lari* | *Kichik va mikro-firmalar* | *Norasmiy sektor* |
| **Jizzax viloyati** | **2 247,8** | **182,8** | **1 676,9** | **388,1** |
| *shahar:* | | | | |
| Jizzax | 1 081,8 | 68,2 | 938,4 | 75,1 |
| *tumanlar:* | | | | |
| Arnasoy | 28,8 | 2,8 | 12,9 | 13,1 |
| Baxmal | 80,9 | 3,5 | 32,6 | 44,7 |
| G'allaorol | 118,7 | 8,4 | 64,0 | 46,3 |
| Sharof Rashidov | 360,1 | - | 315,6 | 44,7 |
| Do'stlik | 47,7 | 4,2 | 24,7 | 18,8 |
| Zomin | 224,8 | 74,5 | 106,6 | 43,6 |
| Zarbdor | 55,4 | 2,6 | 25,9 | 26,9 |
| Zafarobod | 27,9 | 3,3 | 10,3 | 14,3 |
| Mirzacho'l | 30,3 | 5,0 | 11,0 | 14,3 |
| Paxtakor | 85,8 | 3,1 | 61,3 | 21,4 |
| Forish | 96,0 | 5,2 | 73,3 | 17,5 |
| Yangiobod | 9,6 | 2,0 | 0,3 | 7,4 |

***Qurilish ishlari hajmining taqsimlanishi,*** *foiz hisobida*

1. ***Kichik korxona va mikrofirmalar.***
2. ***Norasmiy sektor.***
3. ***Yirik qurilish tashkilot-lari.***




2024 yilning yanvar-iyun oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 182 825,5 mln. so'mni tashkil etdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 181,0 foizni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2023- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan 3,1 foiz punktga ko'paydi va 8,1 foizga yetdi.



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

*(mlrd. so'm)*

| *Faoliyat turlarining nomi* | *Yanvar-iyun* | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | *2022 yil* | *Umumiy hajmga nisbatan foizda* | *2023 yil* | *Umumiy hajmga nisbatan foizda* | *2024 yil* | *Umumiy hajmga nisbatan foizda* |
| **Jami** | **5 412,5** | **100,0** | **6 309,3** | **100,0** | **10 137,9** | **100,0** |
| ***shu jumladan: iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha:*** | | | | | | |
| qishloq, o'rmon va baliqchlik xo'jaligi | 1 030,5 | 19,0 | 583,8 | 9,3 | 1 421,2 | 14,0 |
| tog'–kon sanoati | 419,9 | 7,8 | 824,8 | 13,1 | 590,3 | 5,9 |
| ishlab chiqarish sanoati | 2 315,9 | 42,8 | 2 886,6 | 45,8 | 5 101,8 | 50,3 |
| elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash | 91,2 | 1,7 | 199,5 | 3,2 | 1 622,5 | 16,0 |
| suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish | 111,6 | 2,1 | 271,3 | 4,3 | 92,0 | 0,9 |
| qurilish | 333,4 | 6,2 | 258,8 | 4,1 | 176,1 | 1,7 |
| ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash | 353,7 | 6,5 | 278,8 | 4,4 | 76,1 | 0,8 |
| tashish va saqlash | 37,1 | 0,7 | 72,9 | 1,2 | 14,4 | 0,1 |
| yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 3,9 | 0,1 | 21,5 | 0,3 | 242,5 | 2,4 |
| axborot va aloqa | 10,1 | 0,2 | 123,0 | 1,9 | 45,2 | 0,4 |
| moliyaviy va sug'urta faoliyati | 4,8 | 0,1 | 6,8 | 0,1 | 8,3 | 0,1 |
| professional, ilmiy va texnik faoliyat | 42,9 | 0,8 | 208,7 | 3,3 | 36,0 | 0,4 |
| ta'lim | 36,9 | 0,7 | 67,5 | 1,1 | 104,3 | 1,0 |
| sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 25,7 | 0,5 | 63,6 | 1,0 | 129,3 | 1,3 |
| Boshqa iqtisodiy faoliyat turlaridan tashqari: turar – joy binolari qurilishiga investitsiyalar | 183,9 | 3,4 | 330,1 | 5,2 | 318,6 | 3,1 |

(davomi)

| Faoliyat turlarining nomi | Yanvar-iyun | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2022 yil | Umumiy hajmga nisbatan foizda | 2023 yil | Umumiy hajmga nisbatan foizda | 2024 yil | Umumiy hajmga nisbatan foizda |
| san'at, ko'ngil ochish va dam olish | 8,9 | 0,2 | 27,7 | 0,6 | 26,8 | 0,3 |
| boshqa faoliyat turlari | 402,1 | 7,2 | 83,9 | 1,1 | 132,5 | 1,3 |

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tog'-kon sanoatida – 590,3 mlrd. so'm (jami investitsiyalar hajmida 5,8 %), ishlab chiqarish sanoatida – 5 101,8 mlrd. so'm, (50,3 %) shundan, oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarishda – 63,1 mlrd. so'm (0,6 %), to'qimachilik mahsulotlari va kiyim ishlab chiqarishda – 665,1 mlrd. so'm (6,6 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda – 1 622,5 mlrd.so'm (16,0 %), qurilishda – 176,1 mlrd. so'm (1,7 %), tashish va saqlashda –14,4 mlrd. so'm (0,1 %), ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlashda – 76,1 mlrd. so'm (0,8 %), axborot va aloqada 45,2 mlrd. so'm (0,8 %), professional, ilmiy va texnik faoliyatda – 36,0 mlrd. so'm (0,4 %), ta'limda – 104,3 mlrd. so'm (1,0 %), boshqa iqtisodiy faoliyat turlaridan tashqari: turar joy binolari qurilishida – 318,6 mlrd. so'mlik (3,1 %) investitsiyalar o'zlashtirildi.

## Asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiyalar

2024 yilning yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning umumiy hajmi 7 990,4 mlrd. so'mni yoki 2023 yilning mos davriga nisbatan 150,7 foizgao'sganini ko'rish mumkin.



### Asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning tarkibi
*(2024 yilning yanvar-iyunida)*

| Investitsiya turlari | Umumiy hajmi (mlrd. so'm) | Shu jumladan: | |
|---|---|---|---|
| | | davlat kafolati ostida | to'g'ridan-to'g'ri va boshqalar |
| Jami asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlar | **7 990,4** | **175,8** | **7 814,6** |
| shu jumladan: | | | |
| davlat | 17,3 | 7,2 | 10,1 |
| nodavlat | 7 973,1 | 168,6 | 7 804,5 |

Hisobot davrida viloyat bo‘yicha to‘g‘ridan – to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlarning, nodavlat sektoriga kiritilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlar 99,9 foizga ko‘paydi.

## Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar, *birlikda*

| | *Shu jumladan:* | | *o‘tgan yiliga nisbatan, foizda* |
|---|---|---|---|
| | *2023 yil* | *2024 yil* | |
| **Jizzax viloyati** | **1 549** | **1 294** | **83,5** |
| *shahar:* | | | |
| Jizzax | 600 | 516 | 86,0 |
| *tumanlar:* | | | |
| Arnasoy | 43 | 34 | 79,1 |
| Baxmal | 53 | 54 | 101,9 |
| G‘allaorol | 124 | 96 | 77,4 |
| Sharof Rashidov | 238 | 185 | 77,7 |
| Do‘stlik | 48 | 40 | 83,3 |
| Zomin | 102 | 96 | 94,1 |
| Zarbdor | 93 | 70 | 75,3 |
| Zafarobod | 26 | 27 | 103,8 |
| Mirzacho‘l | 51 | 29 | 56,9 |
| Paxtakor | 80 | 72 | 90,0 |
| Forish | 66 | 52 | 78,8 |
| Yangiobod | 25 | 23 | 92,0 |

*foiz hisobida*






Yuqori o‘sishga erishgan hududlar Zafarobod (103,8 %) va Baxmal (101,9 %) tumanlari bo‘ldi.



## Qurilish ishlari
## 2024- yil yanvar - iyun uchun

**Pudratchi** – kapital qurilish uchun pudratshartnomasiasosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish-montaj, qayta ta’mirlash, kapital ta’mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug‘ullanadi.

**Tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish hajmlariningulushi**




**Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Zomin tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 33,1%) qayd etildi.



## Fuqarolik obyektlari qurilishi bo‘yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 37,8 % ni tashkil etdi. Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 62,1 % (19,4 % ga kamaydi) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,1 % ni tashkil etdi (0,4 % ga kamaydi).

***ulushi foizda***




**2023-yil yanvar-iyun** **2024-yil yanvar-iyun**

**Yirik qurilish tashkilotlari** **Kichik korxonava mikrofirmalar** **Norasmiy sektor**

**Bino va inshootlar qurilishi**




**Yirik qurilishtashkilotlari** **Kichik korxonava mikrofirmalar** **Norasmiy sektor**



## Xorijiy investitsiya va kreditlarning alohida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi




Ishlab chiqarish sanoatida xorijiy investitsiya va kreditlar ulushi 50,3 foizni tashkil qildi. O‘tgan yilning mos davriga nisbatan 8,1 foizga ko‘paydi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida xorijiy investitsiya va kreditlar ulushi 14,0 foizni tashkil qildi. O‘tgan yilning mos davriga nisbatan 5,5 foizga ko‘paydi.

Boshqalarda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan xorijiy investitsiya va kreditlar 6,4 foizga kamaydi.

Xorijiy investitsiya va kreditlar bo‘yicha yuqori ulushga ega tumanlar

| | |
|---|---|
| 27,3 | Sh.Rashidov |
| 17,5 | Jizzax shahri |
| 15,0 | G‘allaorol |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan tog‘-kon sanoatida xorijiy investitsiya va kreditlar 6,2 foizga kamaygan.

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida xorijiy investitsiya va kreditlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha salmoqli qismining o‘zlashtirilishi ishlab chiqarish sohasiga to‘g‘ri kelib, jami xorijiy investitsiyalar hajmidan 50,3 foizni tashkil qilgan va 2023 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 8,1 foizga ko‘paygan, tog‘-kon sanoati – 5,8 foizni tashkil qildi (6,2 foizga kamaygan).



## Joriy yilning yanvar-iyun oylarida kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalaridan markazlashgan investitsiyalar tarkibi






## Joriy yilning yanvar-iyun oylarida kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalaridan markazlashmagan investisiyalar tarkibi





**2024 yil yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi shahar va tumanlar kesimida quyidagicha ifodalangan**

| | *Investitsiyalar hajmi, mlrd.so'm* | *O'sish sur'ati, % da* | *Aholi jon boshiga (ming so'm)* | *O'sish sur'ati, % da* |
|---|---|---|---|---|
| **Jizzax viloyati** | **10 137,9** | **134,9** | **6 693,6** | **132,1** |
| *shahar:* | | | | |
| Jizzax | 2291,6 | 137,0 | 11 644,3 | 134,2 |
| *tumanlar:* | | | | |
| Arnasoy | 214,5 | 2,1 m. | 4 386,6 | 2,1 m. |
| Baxmal | 435,3 | 156,6 | 2 539,7 | 153,1 |
| G'allaorol | 974,5 | 55,6 | 5 189,0 | 54,4 |
| Sharof Rashidov | 2 415,3 | 4,6 m. | 9 882,4 | 4,5 m. |
| Do'stlik | 286,0 | 2,7 m. | 4 073,9 | 2,6 m. |
| Zomin | 722,4 | 168,5 | 4 000,2 | 164,5 |
| Zarbdor | 146,2 | 127,9 | 1 537,3 | 125,2 |
| Zafarobod | 582,9 | 2,8 m. | 10 815,1 | 2,8 m. |
| Mirzacho'l | 404,9 | 173,8 | 7 282,4 | 171,0 |
| Paxtakor | 225,4 | 2,4 m. | 2 772,9 | 2,4 m. |
| Forish | 1 268,1 | 67,3 | 12 847,9 | 66,3 |
| Yangiobod | 170,8 | 140,9 | 5 711,5 | 139,0 |

**Ijtimoiy soha obyektlarini qurish**

Uy–joy qurilishida 318,6 mlrd. so'mlik investitsiyalar o'zlashtirildi yoki jami investitsiyalar hajmining 3,1 foizni tashkil qildi.



## 2024 yilning yanvar-iyun oylarida yangi qurilish va rekonstruksiya hisobidan foydalanishga topshirilgan turar-joy va ijtimoiy soha obyektlari

| *Obyekt turlari* | *Barcha manbalar hisobidan* | | | |
|---|---|---|---|---|
| | *Foydalanishga topshirildi* | | *2023 yil yanvar-iyunida foydalanishga topshirilgan* | |
| | *jami* | *shu jumladan: qishloq joylarda* | *jami* | *shu jumladan: qishloq joylarda* |
| Uy–joy, umumiy maydoni ming kv.m | 268,6 | 123,4 | 303,0 | 152,2 |
| *undan:* *yakka tartibdagi uy–joylar* | | | | |
| yakka tartibdagi uy–joylar namunaviy loyihalar bo'yicha shahar va qishloq joylarda | 268,6 | 123,4 | 303,0 | 152,2 |
| Umumiy ta'lim va maxsus maktablar, o'quvchilar soni | | | | |
| Suv tarmoqlari, km | 61,4 | 45,6 | 571,4 | 499,9 |
| Gaz tarmoqlari, km | 9,9 | 4,1 | 16,2 | 5,6 |

2024 yilning yanvar-iyun oylarida umumiy maydoni 268,6 ming kv. m bo'lgan 1 055 ta uy-joy (2023 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 77,8 %), shu jumladan qishloq joylarida 123,4 ming kv.m (81,1 %) maydonga ega 482 ta uy-joy foydalanishga topshirildi.

Kommunal qurilishda 61,4 km suv tarmoqlari (45,6 km qishloq joylarda) va 9,9 km gaz tarmoqlari (4,1 km qishloq joylarda) ishga tushirildi.Mos ravishda suv tarmoqlari 2023 yil yanvar-iyun oylarida 571,4 km va (o'sish sur'ati 10,7 foiz), qishloq joylarda 499,9 km (o'sish sur'ati 9,1 foiz), gaz tarmoqlari 2023 yil yanvar-iyun oylarida 16,2 km va (o'sish sur'ati 61,1 foiz), qishloq joylarda 5,6 km (o'sish sur'ati 73,2 foiz) ni tashkil qildi.

Suv tarmoqlari qurilishiga 19,7 mlrd. so'm, shundan aholi mablag'lari hisobidan 0,2 mlrd. so'm (1,0 %) va suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidanт 19,5 mlrd. so'm (99,0 %)o'zlashtirildi.

Gaz tarmoqlari qurilishiga 0,2 mlrd. so'm, shundan aholi mablag'lari hisobidan 0,2 mlrd. so'm (umumiy hajmning 100 ,0%) o'zlashtirildi.

## Qurilish faoliyati

2024 yilning yanvar-iyun oylarida 2 247,8 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2023 yilning mos davriga nisbatan 110,8 foizni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakllari bo‘yicha qurilish ishlari tarkibi,**

*mlrd. so‘mda*

| | *yanvar-iyun* | | |
|---|---|---|---|
| | *2022 yil* | *2023 yil* | *2024 yil* |
| **Qurilish ishlari hajmi** | **1 718,5** | **1 938,9** | **2 247,8** |
| *shu jumladan:* | | | |
| davlat | 16,0 | 6,2 | 135,2 |
| nodavlat | 1 702,5 | 1 932,7 | 2 112,6 |

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 2 112,6 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, jami qurilish ishlari hajmining 94,0 foizini tashkil qildi.



**Mulkchilik shakllari bo‘yicha qurilish tashkilotlarining o‘z kuchlari bilan bajargan qurilish ishlari taqsimoti**
*(umumiy hajmga nisbatan % da)*





## Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirilishi

Qurilish ishlari umumiy hajmining 79,0 foizi binolar va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari, 14,6 foizi fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari va 6,4 foizi ixtisoslashtirilgan qurilish ishlariga to‘g‘ri keldi. Shu jumladan, umumiy hajmdan 77,9 foizi yangi qurilish, rekonstruksiya va kengaytirish hamda texnik jihatdan qayta jihozlash ishlariga to‘g‘ri keldi.

Hisobot davrida viloyat bo‘yicha jami qurilish ishlari hajmi 2 112,6 mlrd. so‘m nodavlat sektorining ulushi 94,0 foizni tashkil qildi.

Qurilish ishlari umumiy hajmining 77,9 foizi yangi qurilish, rekonstruksiya qilish, kengaytirish va korxonalarni texnik qayta qurollantirishga, 22,1 foizi esa, kapital, joriy ta’mirlashga va boshqa qurilish pudrat ishlariga to‘g‘ri keldi.



## 2024 yil yanvar-iyun oylarida faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari hajmi, *mlrd. so‘mda*




Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyhalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo‘ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo‘ljallangan binolarni qurish bo‘yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 79,0 foizni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davridagi ko‘rsatgichga nisbatan 3,7 foiz punktga kamaydi.



## Iqtisodiy faoliyat turlaribo‘yicha qurilish ishlari yanvar-iyun

| | 2023 yil | 2024 yil |
|---|---|---|
| Bino va inshootlar qurilishi | 82,4 % | 79,0 % |
| Fuqarolik obyektlar qurilishi | 10,8 % | 14,6 % |
| Ixtisoslashgan inshootlar qurilishi | 6,8 % | 6,4 % |
| | 100,0 % | |













Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 14,6 foizni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 3,8 foiz punktga ko‘paydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga 6,4 foizi to‘g‘ri kelib, o‘tgan yildagi ko‘rsatgichga nisbatan 0,4 foiz punktga kamaydi.



**2024 yil yanvar-iyun oylarida tuman(shahar)lar kesimida qurilish ishlarining korxonalar toifasi bo‘yicha o‘tgan yilga nisbatan foizda**




Yirik pudrat korxonalari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari o‘tgan yilga nisbatan – 181,0 foizni tashkil etdi. Viloyatda qurilish ishlarining asosiy qismi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilib, jami qurilish ishlarining – 74,6 foizini tashkil etdi,norasmiy sektor ulushi esa – 17,3 foiznitashkil qildi.